

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 36 921,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 6,1 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2023- yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 112,5 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Samarqand viloyatining qo'shgan hissasi 6,5 % ga yetdi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida Samarqand viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2023- yil	2024- yil	
I. YAHM, jami	30 921,8	36 921,1	106,1
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	30 220,2	36 231,4	106,2
mahsulotlarga sof soliqlar	701,6	689,7	103,5
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	30 220,2	36 231,4	106,2
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	9 379,9	10 370,5	104,2
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	7 003,5	8 528,5	107,5
sanoat	5 018,2	6 418,5	108,0
qurilish	1 985,3	2 110,0	106,2
xizmatlar	13 836,8	17 332,4	106,9
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 304,3	2 821,9	113,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 047,7	2 591,5	112,3
boshqa xizmat tarmoqlari	9 484,8	11 919,0	104,2

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 8 730,9 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,9 % ga yuqoridir.

2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2023- yil	2024- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,7	98,1
mahsulotlarga sof soliqlar	2,3	1,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	31,0	28,6
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	23,2	23,5
sanoat	16,6	17,7
qurilish	6,6	5,8
xizmatlar	45,8	47,9
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,6	7,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,8	7,2
boshqa xizmat tarmoqlari	31,4	32,9




2024- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 28,6 % ni, sanoat tarmog'i 17,7 % ni, qurilish 5,8 % ni va xizmatlar sohasi 47,9 % ni tashkil qildi.

2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023- yil



2024- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,3 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 1,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,3 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 1,1 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 1,0 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,1 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 2,7 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,08 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 0,3 f.p.)ga ko'paydi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2024- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,2 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 28,6 %), sanoatda – 108,0 % (17,7 %), qurilishda – 106,2 % (5,8 %), xizmatlar sohasida – 106,9 % ni (47,9 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 113,2 % (7,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,3 % (7,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,2 % dan (32,9 %) iborat bo'ldi.

2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2024- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 112,5 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 118,4 % va xizmatlarda 117,2 % qayd etildi.

2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 25 280,9 mlrd. so'mni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida 21 047,3 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 69,8 % ni (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 69,6 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog'liq.

2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so'm

Ulushi, % da

2023- yil

21 047,3

69,6 %

2024- yil

25 280,9

69,8 %

